



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

INTERAKTIV METODLAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINFLARDА CHET TILINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Toxirova Madinabonu¹

Farg'ona davlat universiteti

KEYWORDS

interaktiv metodlar,
boshlang'ich sinf, chet tili,
ta'lif samaradorligi,
motivatsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun chet tilini o'qitishda interaktiv metodlarni qo'llashning samarasi tahlil qilingan. Interaktiv yondashuv o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi, til o'rganishga qiziqish uyg'otadi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maqolada amaliyotda qo'llanilayotgan asosiy usullar hamda ularning natijalari yoritilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15684597](https://doi.org/10.5281/zenodo.15684597)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Zamonaviy pedagogik jarayonlarda innovatsion va interaktiv yondashuvlarning qo'llanishi ta'lif samaradorligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'lif bosqichida chet tilini o'qitishda bu metodlar an'anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori natijalar bermoqda. Chunki ushbu yoshdagi o'quvchilarda til o'rganish jarayoni ko'proq o'yin, tasvir, muloqot va bevosita ishtirok orqali amalga oshirilganda samarali bo'ladi.

Interaktiv metodlar bolaning psixologik, ijtimoiy va nutqiy rivojlanishiga mos holda tanlanadi. Bu metodlar orqali o'quvchi mustaqil fikrlash, erkin muloqot qilish, til vositalarini real vaziyatlarda qo'llash kabi kompetensiyalarni egallaydi. Mazkur maqolada aynan boshlang'ich sinflarda chet tilini o'qitishda samarali deb topilgan interaktiv metodlar va ularning ta'limga ta'siri o'rganiladi.

Metod

Ushbu bo'limda boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rgatishda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan interaktiv metodlar keltirilgan: "Mozaika" usuli – O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi, har bir guruh mavzuning bir qismini o'rganib, so'ng uni boshqa guruh a'zolariga tushuntiradi. Bu metod hamkorlikda o'rganish ko'nikmasini shakllantiradi. "Aylanada muloqot" – O'quvchilar doira shaklida o'tirib, berilgan savollarga navbat bilan

¹ Farg'ona davlat universiteti

javob beradi. Bu usul har bir ishtirokchining darsda faolligini oshiradi.

Rollli o'yinlar – “Do'konda xarid qilish”, “O'zini tanishtirish” kabi sahna ko'rinishlari orqali o'quvchilar grammatika va leksikani tabiiy muhitda mustahkamlab boradi. “Blits savol-javob” – Tezkor savollarga tezda javob berish orqali e'tiborni jamlash va faol fikrlash rivojlanadi. Flesh-kartalar (flashcards) – So'zlar, ifodalar va grammatik shakllarni mustahkamlashda samarali. Raqamli va bosma variantlari darsda teng foydalidir. “Juftlikda muloqot” – O'quvchilar ikki kishilik guruhda topshiriqlarni bajaradi. Masalan, savol-javob, intervju olish, o'zaro hikoya qilish kabi mashqlar.

“Interaktiv doska” va smart-texnologiyalar – Ta'lim jarayoniga multimedia materiallarini jalb etish orqali bolalarning barcha sezgi a'zolari faollashtiriladi.

“Topshiriqli o'yinlar” – “O'yinli diktant”, “Qayta tuzilgan gap”, “So'z tanlash” kabi o'yinlar grammatikani mustahkamlashda interaktiv vosita sifatida xizmat qiladi. “Guruhda tadqiqot” – Har bir guruhga topshiriq beriladi (masalan: hayvonlar haqida gap tayyorlash) va ular grammatik birlklardan foydalangan holda taqdimot qilishadi. “Til bilan ekskursiya” – Real yoki virtual muhitda tilni qo'llashga yo'naltirilgan faoliyatlar, masalan: “Chet tilida sayr”, “Xarita bo'yicha yo'nalish aytish”. “Dramatizatsiya” – Bolalar qisqa hikoyalarni dramatik shaklda sahnalashtiradi. Bu orqali ifoda vositalari, talaffuz va intonatsiya mustahkamlanadi. “Refleksiya va baholash” – Har bir mashg'ulotdan so'ng o'quvchilar o'z faoliyati va muvaffaqiyatlarini muhokama qiladilar. Bu metod o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Mazkur metodlarning qo'llanishi o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi va ularning mustaqil fikrlash, o'z fikrini ifoda etish, eshitish orqali tushunish qobiliyatini oshiradi.

Xulosa

Yuqorida ko'rib chiqilgan interaktiv metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tiliga bo'lgan qiziqishni oshirish, tilni faol va ongli ravishda o'zlashtirish hamda nutqiy faollikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlarning barchasi o'quvchining markaziy rolini ta'minlab, uni ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylantiradi. Xulosa qilib aytganda, interaktiv metodlar boshlang'ich ta'limda chet tilini o'qitishda zamonaviy va samarali yondashuv sifatida keng qo'llanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamidov A. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, T.: “O'qituvchi”, 2021.
2. Boboyeva M. “Chet tillarni o'qitish metodikasi”, Samarqand, 2020.
3. Shayxov Z. “Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar”, Farg'ona, 2022.
4. Jeremy Harmer. “The Practice of English Language Teaching”, Pearson Education, 2015.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. “Approaches and Methods in Language Teaching”, Cambridge University Press, 2014.
6. Larsen-Freeman, D. “Techniques and Principles in Language Teaching”, Oxford University Press, 2000.
7. Brown, H. D. “Principles of Language Learning and Teaching”, Pearson Longman, 2007.